



# IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**№5**



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

**2026**



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, may.*

### Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

### Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

### Tahrir hay'ati:

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoirazimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i  
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.  
**Abdulkarimova Dinara Rustamxonovna**, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.  
**Ikramov Murod Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli**, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Prosecutor of Anijan Region  
**Ochilov Farkhod**, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.  
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Ikramov Murod Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori  
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Zebo Kuldasheva**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor  
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Zebo Kuldasheva**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

SANOAT KORXONALARINING IQTISODIY SALOHİYATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSİYANING O'RNI .....	18
<b>O'rinov Akmaljon Ahmadjonovich</b> <b>Siddiqov Javlonbek Sodiqjon o'g'li</b>	
XORAZM VILOYATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING JORIY HOLATI VA RIVOJLANISH OMILLARI TAHLILI .....	22
<b>Ro'zmatova Farahongiz Bekmurotovna</b>	
ENERGETIKA INFRATUZILMASINING HUDUDIY RIVOJLANISH VA IJTIMOY TENGLIKKA TA'SIRI.....	27
<b>Babajanova Dilfuza Abdurasulovna</b>	
HUDUDLARDA LOKAL TURIZM XIZMATLARINING TARKIBI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI TAHLILI (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA) .....	32
<b>Xasanova Mavjuda Ma'mirjonovna</b>	
TURIZM MAVSUMIYLIGI OMILLARINING KOMPLEKS TAHLILI: TASNIFLASHNING KONSEPTUAL VA INTEGRATSION MEXANIZMLARI.....	41
<b>BAROTOV UMIDJON MAHMUD O'G'LI</b>	



# ENERGETIKA INFRATUZILMASINING HUDUDIY RIVOJLANISH VA IJTIMOY TENGLIKKA TA'SIRI

Babjanova Dilfuza Abdurasulovna  
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchi

**Annotatsiya.** Maqolada energetika infratuzilmasining hududiy rivojlanish va ijtimoiy tenglik jarayonlariga ta'sir mexanizmlari ilmiy nuqtayi nazardan kompleks tarzda tahlil qilindi. Tadqiqotda Jahon banki, Xalqaro Energetika Agentligi va Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturi tomonidan e'lon qilingan rasmiy ma'lumotlarga tayanilib, energiya ta'minotining sifati va qulayligi mintaqaviy iqtisodiy o'sish hamda aholining hayot darajasi o'rtasidagi mustahkam bog'liqlik asoslab berildi. Tadqiqot davomida zamonaviy nazariy yondashuvlar tizimlashtirildi hamda energetika sohasidagi investitsiyalarning hududiy kapital, mehnat unumdorligi va inson taraqqiyoti indekslariga ta'siri keng ko'lamda o'rganildi. Muallif tomonidan akademik adabiyotlar umumlashtirilib, energetika tarmog'ining hududiy mutanosib taraqqiyot vositasi sifatidagi o'rni xolisona baholandi. Olingan natijalar barqaror infratuzilma siyosatini shakllantirishda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lib, mintaqaviy farqlarni qisqartirish bo'yicha asosli takliflar ishlab chiqildi.

**Kalit so'zlar:** energetika infratuzilmasi, hududiy rivojlanish, ijtimoiy tenglik, inson taraqqiyoti, barqaror investitsiyalar, qayta tiklanuvchi energiya.

**Аннотация.** В статье комплексно проанализированы механизмы влияния энергетической инфраструктуры на процессы регионального развития и социального равенства. Исследование основано на официальных данных Всемирный банк, Международное энергетическое агентство и Программа развития ООН, на основе которых обоснована тесная взаимосвязь между качеством и доступностью энергоснабжения, экономическим ростом регионов и уровнем жизни населения. В работе систематизированы современные теоретические подходы, а также исследовано влияние инвестиций в энергетический сектор на региональный капитал, производительность труда и индексы человеческого развития. Автор обобщены академические исследования и дана объективная оценка роли энергетической отрасли как инструмента сбалансированного регионального развития. Полученные результаты имеют важное теоретическое и практическое значение для формирования политики устойчивой инфраструктуры и разработки мер по сокращению региональных диспропорций.

**Ключевые слова:** энергетическая инфраструктура, региональное развитие, социальное равенство, человеческое развитие, устойчивые инвестиции, возобновляемая энергия.

**Annotation.** This article provides a comprehensive analysis of the mechanisms through which energy infrastructure influences regional development and social equity. The study relies on official data from the World Bank, International Energy Agency, and United Nations Development Programme to substantiate the strong relationship between the quality and accessibility of energy supply, regional economic growth, and living standards. The research systematizes modern theoretical approaches and examines the impact of energy sector investments on regional capital, labor productivity, and human development indices. The author synthesizes academic literature and evaluates the role of the energy sector as a driver of balanced regional development. The findings have significant theoretical and practical implications for shaping sustainable infrastructure policies and reducing regional disparities.

**Keywords:** energy infrastructure, regional development, social equity, human development, sustainable investment, renewable energy.

## KIRISH

Energetika infratuzilmasi zamonaviy iqtisodiyotning fundamental ustuni hisoblanib, hududiy taraqqiyot va aholi turmush sifatining shakllanishida hal qiluvchi rolni bajaradi. Elektr energiyasi, issiqlik, gaz va yoqilg'i tarmoqlarining barqaror, sifatli hamda arzon yetkazib berilishi ishlab chiqarish quvvatlarini joylashtirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va aholining ijtimoiy farovonligini ta'minlash uchun zaruriy shartni tashkil etadi [1].



Xalqaro tajriba energiya ta'minotidagi mintaqaviy farqlarning bevosita iqtisodiy o'sish sur'atlari, kambag'allik darajasi va inson taraqqiyoti indekslarida aks etishini izchil ravishda tasdiqlamoqda [2].

Hududiy taraqqiyot konsepsiyasi nuqtai nazaridan energetika infratuzilmasi nafaqat texnik tarmoq, balki ijtimoiy tenglikni ta'minlovchi muhim institutsional vosita sanaladi. Energiyaga kirish imkoniyatining kengayishi qishloq joylarda kichik biznesning rivojlanishi, ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlari sifatining oshishi hamda ayollar mehnat bandligining kengayishi bilan parallel ravishda kechadi [3].

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror taraqqiyot maqsadlari (BTM) doirasidagi 7-maqsad — barchaga arzon, ishonchli, barqaror va zamonaviy energiya manbalarini ta'minlash — global hamjamiyatning ushbu yo'nalishdagi izchil sa'y-harakatlarini aks ettiradi [4].

O'zbekiston Respublikasida energetika tarmog'ining modernizatsiyalanishi va hududiy energetika balansining maqbullashtirilishi mintaqaviy taraqqiyot siyosatining ustuvor yo'nalishlari qatoriga kiritilgan. Mamlakat hududlarida elektr energiyasiga kirish darajasining yuqoriligi, gazlashtirish darajasining mustahkamlanishi va qayta tiklanuvchi manbalardan foydalanishning kengaytirilishi tarmoqning makroiqtisodiy ahamiyatini yanada oshirdi [5].

Tadqiqotning maqsadi — energetika infratuzilmasining hududiy rivojlanish va ijtimoiy tenglikka ta'sir mexanizmlarini nazariy asosda ochib berish hamda xalqaro empirik tajribadan kelib chiqib, amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Infratuzilmaning iqtisodiy o'sishga ta'siri masalasi xorijiy tadqiqotlarda yarim asrdan ortiq vaqt davomida faol o'rganilib kelinmoqda. David Alan Aschauer jamoat infratuzilmasining unumdorlikka ko'rsatadigan ta'sirini ekonometrik usullar yordamida miqdoriy baholab, AQSh mehnat unumdorligi o'sishidagi sustlikning bir qismini infratuzilmaviy investitsiyalarning kamayishi bilan izohladi [6]. Mazkur klassik yondashuv keyingi tadqiqotlar uchun nazariy ramka sifatida xizmat qildi va energetika sohasiga oid empirik adabiyotlarning rivojlanishiga turtki berdi.

César Calderón va Luis Servén Jahon banki ishchi hisobotida 121 mamlakat bo'yicha ma'lumotlar asosida infratuzilma rivojlanishining iqtisodiy o'sishga ijobiy hamda daromadlar tengsizligini kamaytiruvchi ta'sirini empirik dalillar bilan tasdiqladilar [7]. Ularning xulosalari energetika tarmog'ining ijtimoiy tenglikka ta'sir kanallarini tushuntirishda muhim metodologik asos yaratdi va keyingi avlod tadqiqotchilari uchun asosiy hisob nuqtasiga aylandi.

Jahon bankining 1994-yildagi "Infratuzilma taraqqiyot uchun" mavzusidagi Jahon taraqqiyot hisobotida ushbu sohadagi sarmoyalar tarkibi va sifatining iqtisodiy raqobatbardoshlikka, kambag'allikni qisqartirishga hamda atrof-muhitni muhofaza qilishga ko'rsatadigan kompleks ta'siri yoritilgan [8]. Hisobotda energetika tarmog'i transport va kommunikatsiya bilan bir qatorda eng yuqori ijtimoiy rentabellikka ega yo'nalish sifatida e'tirof etiladi.

Energiya kambag'alligi (*energy poverty*) tushunchasi atrofidagi adabiyotlar tarmoq tahlilini ijtimoiy o'lchamga olib chiqdi. Xalqaro Energetika Agentligi hisobotlarida energiyaga kirish imkoniyatining cheklanganligi salomatlik, ta'lim va gender tengligi bilan bog'liq ko'rsatkichlarda aks etishi miqdoriy dalillar yordamida asoslangan [9]. Xalqaro Qayta Tiklanuvchi Energiya Agentligi hisobotlari qayta tiklanuvchi energiya manbalarining qishloq elektrlashtirish sur'atlarini tezlashtirishdagi rolini umumlashtirib bayon qiladi [10].

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturining 2023–2024-yillardagi Inson taraqqiyoti hisobotida energiyaga kirish imkoniyati inson kapitali, daromad darajasi va kutilayotgan umr uzunligi bilan tizimli aloqada ekanligi xalqaro qiyosiy ma'lumotlar yordamida ko'rsatilgan [11]. Hisobot energetika sohasini inson taraqqiyotining "yashirin" omili sifatida talqin qilib, mintaqaviy farqlarning kelib chiqishini tushuntirishda yangi qatlam ochadi.

Sodda energetik determinizmdan farqli o'laroq, zamonaviy adabiyotlarda energetika infratuzilmasi va hududiy taraqqiyot o'rtasidagi munosabat ko'p bosqichli hamda o'zaro ta'sirli model sifatida talqin qilinadi. Investitsiyalarning to'g'ri taqsimlanishi institutsional sifat, makroiqtisodiy barqarorlik va inson kapitalining boshlang'ich darajasi bilan birgalikda barqaror samara beradi [7]. Bunday yondashuv hududiy tafovutlarni kamaytirishga qaratilgan davlat siyosatining samaradorligini oshirish imkoniyatini kengaytiradi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot nazariy-tahliliy uslubda olib borildi. Asosiy metodologik yondashuv sifatida tizimli adabiyotlar tahlili, qiyosiy tahlil hamda tabaqalashtirilgan umumlashtirish usullari qo'llanildi. Manbalar bazasi quyidagi tamoyillarga binoan tanlandi: ochiqlik, davlat va xalqaro tashkilotlar tomonidan rasman e'lon qilinganlik, retsenziyalik ilmiy nashrlar hamda tan olingan global statistika xizmatlari ma'lumotlariga asoslanish.

Empirik manba bazasini Jahon banki, Xalqaro Energetika Agentligi, Xalqaro Qayta Tiklanuvchi Energiya



Agentligi va Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturi tomonidan e'lon qilingan rasmiy hisobotlar tashkil etdi. Indikator tanlovi quyidagi mezonlarga muvofiq amalga oshirildi: aholining elektr energiyasiga kirish darajasi (foizda), inson taraqqiyoti indeksi (HDI), kishi boshiga to'g'ri keladigan elektr energiyasi iste'moli (kVt-soat) hamda energetika sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi.

Tahlil bosqichi quyidagi ketma-ketlikda tashkil etildi: birinchi bosqichda nazariy konsepsiyalar tizimlashtirildi va energetika infratuzilmasining hududiy taraqqiyotga ta'sir kanallari ifodalandi; ikkinchi bosqichda xalqaro tashkilotlarning so'nggi yillardagi rasmiy ma'lumotlari asosida ko'rsatkichlar qiyosiy tartibda baholandi; uchinchi bosqichda olingan empirik kuzatuvlar nazariy yondashuvlar bilan integratsiyalashtirilib, asoslangan amaliy takliflar shakllantirildi.

Tadqiqotda mavhum yoki rasman tasdiqlanmagan ma'lumotlardan foydalanish istisno etildi; manbalarning ochiqligi va havola qilinishi mumkinligi asosiy mezon sifatida saqlandi.


## TAHLIL VA NATIJALAR

Energetika infratuzilmasining hududiy taraqqiyotga ta'siri ko'p kanallar orqali namoyon bo'ladi.

Birinchi kanal — ishlab chiqarish funksiyasi orqali ta'sir: ishonchli energiya ta'minoti sanoat va xizmatlar sektorining unumdorligini oshiradi hamda kapital qaytimini yuqori darajada ushlab turadi [6].

Ikkinchi kanal — inson kapitali kanali: barqaror elektr ta'minoti maktab va sog'liqni saqlash muassasalarining samarali faoliyat yuritishini ta'minlaydi va inson taraqqiyoti indeksining o'sishida bilvosita rol o'ynaydi [11].

Uchinchi kanal — institutsional kanal: zamonaviy energetika tarmog'i raqamli xizmatlar, moliyaviy inkluziya va davlat boshqaruvi samaradorligi uchun zarur texnik asos yaratadi [4].



1-rasm. Energetika infratuzilmasining hududiy taraqqiyot va ijtimoiy tenglikka ta'sirining konseptual sxemasi<sup>1</sup>

Xalqaro miqyosdagi qiyosiy ko'rsatkichlar energiyaga kirish darajasi va inson taraqqiyoti indeksi o'rtasida yuqori darajadagi muvofiqlik mavjudligini namoyon etadi. Quyidagi jadval Jahon banki hamda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturining ochiq ma'lumotlar bazalari asosida shakllantirilgan bo'lib, energetika sohasidagi xizmatlar darajasi bilan inson taraqqiyoti natijalari o'rtasidagi mustahkam bog'liqlikni tasdiqlaydi.

1 Muallif tomonidan adabiyot tahlili asosida ishlab chiqilgan



1-jadval.  
Tanlangan davlatlarda aholining elektr energiyasiga kirish darajasi  
va inson taraqqiyoti indeksining qiyosiy ko'rsatkichlari (2022-yil)<sup>2</sup>

Davlat	Aholining elektr energiyasiga kirish darajasi, foizda	Inson taraqqiyoti indeksi (HDI)
Norvegiya	100	0,966
Germaniya	100	0,950
Xitoy	100	0,788
O'zbekiston	100	0,727
Hindiston	99,6	0,644
Bangladesh	99,4	0,670
Eritreya	55,4	0,492
Janubiy Sudan	8,4	0,381

Keltirilgan ma'lumotlar elektr energiyasiga universal kirishni ta'minlagan davlatlarda inson taraqqiyoti indeksining yuqori darajada saqlanishini, energiya ta'minoti cheklangan mamlakatlarda esa inson taraqqiyoti ko'rsatkichlarining sezilarli darajada past ekanligini xulosa qilish imkonini beradi. O'zbekistonda elektr energiyasiga kirish darajasining yuz foizga teng bo'lishi mamlakatda hududiy ijtimoiy tenglikni ta'minlash uchun mustahkam asos yaratgan [12].

Energetika sohasidagi sarmoyalar oqimi mintaqaviy iqtisodiy faollikning muhim multiplikatorlaridan biri sanaladi. Xalqaro Energetika Agentligi hisobotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha 2023-yilda energetikaga yo'naltirilgan investitsiyalar 2,8 trillion AQSh dollaridan oshgan bo'lib, ushbu summaning qariyb yarmi qayta tiklanuvchi manbalar va tarmoq infratuzilmasiga yo'naltirilgan [13]. Bunday investitsiya tarkibi qishloq aholi punktlarining elektrlashtirilishini jadallashtirib, hududiy energiya tafovutlarining qisqarishiga xizmat qilgan.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining hududiy ahamiyati alohida o'rin tutadi. Xalqaro Qayta Tiklanuvchi Energiya Agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yil yakuniga kelib dunyo bo'yicha qayta tiklanuvchi energiya quvvatlari 3372 GVtni tashkil etgan va yangi o'rnatilgan quvvatlar tarkibida quyosh hamda shamol energiyasi yetakchi o'rinni egallagan [10]. Markazlashtirilgan elektr tarmog'iga ulanish iqtisodiy jihatdan oqlanmaydigan uzoq qishloq hududlarida quyosh elektr stansiyalari va mikrogrid yechimlari hududiy tenglikni ta'minlashning samarali vositasiga aylangan [15].

Tahlil natijalari nazariy darajada uchta umumiy xulosani asoslaydi. Birinchidan, energetika infratuzilmasining hududiy taraqqiyotga ta'siri uzoq muddatli xarakterga ega bo'lib, inson kapitali, institutsional sifat hamda texnologik bazaning kombinatsiyasi orqali kuchayadi. Ikkinchidan, energiyaga universal kirish ijtimoiy tenglikni ta'minlashning eng samarali bilvosita kanallaridan birini hosil qiladi, chunki u ta'lim, sog'liqni saqlash va daromad shakllantirish imkoniyatlarini kengaytiradi [11]. Uchinchidan, qayta tiklanuvchi manbalarni hududiy darajada joriy etish hududiy energetika balansini muvozanatlashtiradi va atrof-muhitga bo'lgan bosimni kamaytiradi [10].

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Energetika infratuzilmasi hududiy rivojlanishning asosiy tayanch tarkibiy qismlaridan biri sifatida ko'p o'lchovli rol ni bajaradi. O'tkazilgan nazariy tahlil energiya ta'minotining sifatli va universal bo'lishi iqtisodiy o'sish, inson kapitali shakllanishi hamda ijtimoiy tenglikni ta'minlash uchun zarur shart ekanligini asoslaydi [7]. Xalqaro tashkilotlarning rasmiy ma'lumotlari ushbu xulosani empirik darajada mustahkamlab, energetika sohasining hududiy farqlarni qisqartirishdagi rolini aniq ko'rsatadi.

Tahlil natijalariga muvofiq quyidagi takliflar shakllantirildi:

1. qishloq hududlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalariga asoslangan markazlashtirilmagan yechimlarni kengaytirish maqsadga muvofiq sanaladi, chunki ushbu yondashuv hududiy energiya tafovutlarini qisqartirishning iqtisodiy jihatdan maqbul vositasini taqdim etadi [10];
2. energetika sohasidagi davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini chuqurlashtirish hududiy infratuzilma loyihalariga investitsiyalar oqimini barqaror ta'minlash imkoniyatini kengaytiradi [13];
3. energetika xizmatlari sifati va arzonligi monitoringi tizimini hududlar kesimida joriy etish ijtimoiy tenglik ko'rsatkichlarini obyektiv baholashga yordam beradi [4];

<sup>2</sup> Jahon bankining ochiq ma'lumotlar bazasi VA UNDP Inson Taraqqiyoti Hisoboti 2023/24 asosida muallif ishlanmasi



4. energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan dasturlarni inson taraqqiyoti siyosati bilan integratsiyalashtirish uzoq muddatli barqaror taraqqiyot natijalarini ta'minlaydi [11];

5. qayta tiklanuvchi energiya quvvatlarini kengaytirish bo'yicha milliy strategiyalarni global energetika o'tish jarayoni bilan muvofiqlashtirish ekologik va iqtisodiy samarani bir vaqtning o'zida oshiradi [14; 15].

O'zbekistonning energetika tarmog'i sohasidagi izchil islohotlari, gazlashtirish va elektrlashtirish darajasining yuqoriligi hamda qayta tiklanuvchi energiya quvvatlarini kengaytirish bo'yicha qabul qilingan strategik hujjatlar mamlakatning hududiy tenglik va barqaror taraqqiyot yo'lidagi izchil ilgarilashini namoyon etadi [5]. Tadqiqot natijalari hududiy iqtisodiy siyosat instrumentlarini takomillashtirish va energetika infratuzilmasini inson taraqqiyoti maqsadlari bilan strategik bog'lash uchun muhim nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. World Bank. *Infrastructure – Overview*. Available at: <https://www.worldbank.org/en/topic/infrastructure/overview>

2. World Bank; International Energy Agency; International Renewable Energy Agency; United Nations Statistics Division; World Health Organization. *Tracking SDG 7: The Energy Progress Report 2023*. Available at: <https://www.worldbank.org/en/topic/energy/publication/tracking-sdg-7-the-energy-progress-report-2023>

3. International Energy Agency. *SDG7: Data and Projections*. Available at: <https://www.iea.org/reports/sdg7-data-and-projections>

4. United Nations. *Sustainable Development Goal 7: Affordable and Clean Energy*. Available at: <https://sdgs.un.org/goals/goal7>

5. O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi. *Rasmiy portal*. Available at: <https://minenergy.uz/>

6. David Alan Aschauer. Is public expenditure productive? // *Journal of Monetary Economics*. — 1989. — Vol. 23, No. 2. — P. 177–200. Available at: <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/0304393289900470>

7. César Calderón, Luis Servén. *The Effects of Infrastructure Development on Growth and Income Distribution*. World Bank Policy Research Working Paper No. 3400. — Washington, DC: World Bank, 2004. Available at: <https://documents.worldbank.org/en/publication/documents-reports/documentdetail/616291468765619688>

8. World Bank. *World Development Report 1994: Infrastructure for Development*. — Washington, DC: World Bank, 1994. Available at: <https://documents.worldbank.org/en/publication/documents-reports/documentdetail/535851468336642118>

9. International Energy Agency. *World Energy Outlook 2023*. — Paris: IEA, 2023. Available at: <https://www.iea.org/reports/world-energy-outlook-2023>

10. International Renewable Energy Agency. *Renewable Capacity Statistics 2023*. — Abu Dhabi: IRENA, 2023. Available at: <https://www.irena.org/Publications/2023/Mar/Renewable-capacity-statistics-2023>

11. United Nations Development Programme. *Human Development Report 2023/24*. — New York: UNDP, 2024. Available at: <https://hdr.undp.org/content/human-development-report-2023-24>

12. World Bank. *Access to electricity (% of population)*. World Development Indicators. Available at: <https://data.worldbank.org/indicator/EG.ELC.ACCS.ZS>

13. International Energy Agency. *World Energy Investment 2023*. — Paris: IEA, 2023. Available at: <https://www.iea.org/reports/world-energy-investment-2023>

14. Organisation for Economic Co-operation and Development. *Investing in Climate, Investing in Growth*. — Paris: OECD Publishing, 2017. Available at: [https://www.oecd.org/en/publications/investing-in-climate-investing-in-growth\\_9789264273528-en.html](https://www.oecd.org/en/publications/investing-in-climate-investing-in-growth_9789264273528-en.html)

15. International Renewable Energy Agency. *World Energy Transitions Outlook 2023: 1.5°C Pathway*. — Abu Dhabi: IRENA, 2023. Available at: <https://www.irena.org/Publications/2023/Jun/World-Energy-Transitions-Outlook-2023>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

---

**2026. № 5**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Ei.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>